

Inson Papiloma Virusi (HPV) haqida

bilib qo'yganingiz yaxshi bo'lgan ma'lumotlar

HPV (inson papiloma virusi) juda yuqimli virus bo'lib, keyinchalik hayotda saraton kasalligiga olib kelishi mumkin. HPVga qarshi emlash ushbu virus keltirib chiqaradigan saraton kasalligidan himoya qiladi. Barcha bolalarga 5-sinfda maktab hamshirasini tomonidan bepul emlash taklif etiladi.

HPV saraton kasalligiga olib kelishi mumkin

HPVning xil turlari mavjud. Barcha turlari ham jiddiy kasallikka olib kelmaydi, ammo ularning bir nechta keyinchalik hayotda saratonga olib kelishi mumkin. Ko'plab odamlar hayotlari davomida HPV bilan kasallanishlari mumkin, lekin ko'pchilik bu haqida bilmaydi, chunki kasallikni sezib yoki ko'rib bo'lmaydi.

HPV shilliq pardalar bir-biriga tek-kanda, masalan, jinsiy aloqa paytida yuqishi mumkin. Ko'pincha infektsiya o'z-o'zidan tuzalib ketadi, lekin ba'zida uzoq davom etadi. Buning oqibatida keyinchalik hayot davomida tomoq, bachardon bo'yni, jinsiy a'zolar (qin, vulva yoki jinsiy olat) yoki orqa teshikda saraton kasalligiga chalinish xavfi ortadi.

Har yili Shvetsiyada taxminan 1550 kishi HPV sababli yuzaga kelgan sara-tonning biror turli bilan kasallanadi.

Emlash jinsdan qat'iy nazar himoya qiladi

HPVga qarshi emlash saratonga olib kelishi mumkin bo'lgan virusning ko'pgina turlaridan himoya qiladi. Eng yaxshi himoya maktab yoshida yuzaga kelishi tufayli barcha bolalarga maktabda emlash taklif etiladi.

Emlash yaxshi himoya beradi

HPVga qarshi emlash saraton kasalligidan himoya qilish uchun butun dunyo bo'ylab qilinadi Tadqiqotlar ko'rsatishchavaksina juda yaxshi himoya bo'lib, u yana havfsiz hamdir Shvetsiyada barcha HPV vaksinalari milliy emlash reestrida ro'yxatga olingan. Shu usulda saraton kasalligiga qarshi himoya uzoq muddat kuzatuv ostida bo'ladi.

Ko'proq bilishni xohlaysizmi?

Agar siz emlash haqida ko'proq bilmoqchi bo'lsangiz, farzandingizning maktab hamshirasiga murojaat qiling.



EMLASH BUNDAY AMALGA OSHIRILADI

Maktab hamshirasini vaksinani qo'lning yuqori qismiga in'yektsiya shaklida jo'natadi. Vaktsina ikki dozada, dozalar orasida kamida olti oy bo'lgan holda beriladi. Agar bola birinchi dozada 15 yosh va undan katta bo'lsa, jami uchta doz kerak bo'ladi.

Emlashdan oldin

Agar emlashdan oldin savollaringiz yoki xavotrlaringiz bo'lsa, maktab hamshirasini bilan gaplashing.

Emlashdan keyin

In'yektiyadan keyin odatta qo'lning yuqori qismi biroz og'riydi, qizarib ketadi, shishadi yoki qichishadi. Ba'zilar qisqa muddatli isitma, bosh og'rig'i yoki umumiyyet bezovtalikni his qilishlari mumkin. Allergik reaksiyalar juda kam uchraydi. Savollaringiz bo'lsa yoki farzandingiz emlashdan keyin o'zini yomon his qilsa, maktab hamshirasini yoki kasalxonaga murojaat qiling.

**SKYDD
FÖR LIVET**



Shvetsiya emlash dasturi

Shvetsiyadagi barcha bolalarga emlash orqali bir nechta jiddiy kasalliklardan himoya qilish taklif etiladi.
Ushbu emlashlar BVCda va maktabda qilinadi.

FARZANDINGIZ

- ◆ **olti haftalik bo'lganda** rotavirus infeksiyasiidan himoya qiladigan birinchi vaksina qilinadi.
- ◆ **uch oylik bo'lganda** rotavirus infeksiyasiidan himoya qiladigan ikkinchi vaksina qilinadi. Hozirda yana yettita boshqa kasalliklarga qarshi emlash ham amalga oshiriladi: difteriya, qoqshol, ko'k yo'tal, poliomielit, Hib, pnevmokokk va gepatit B.
- ◆ **besh oylik bo'lganda** bola uch oylik bo'lganida olgan oldingi emlashni takrorlash vaqtini keladi.
- ◆ **bir yosh bo'lganda** bola uch va besh oylik bo'lganda rotavirus infektsiyasidan tashqari ba'zi kasalliklarga qarshi olgan vaksinasi uchinchi marta qilinadi.

◆ **bir yarim yosh bo'lganda** qizamiq, parotit va qizilchaga qarshi emlanadi.

◆ **besh yosh bo'lganda** oxirgi emlash BVCda qilinadi va bu difteriya, qoqshol, ko'k yo'tal va poliomielitga qarshi qo'shimcha dozadir.

FARZANDINGIZ

◆ **1-2-sinf bo'lganda** qizamiq, parotit va qizilchaga qarshi ikkinchi marta emlanadi.

◆ **5-sinf bo'lganda** barcha bolalar satraton kasalligini oldini olish uchun inson papillomavirusiga, HPVga qarshi ikkita vaksina oladi.

◆ **8-9 sinf bo'lganda** difteriya, qoqshol va ko'k yo'talga qarshi oxirgi marta emlanadi.

HPVGA QARSHI EMLASH SHVETSIYA EMLASH DASTURINING BIR QISMIDIR.

Quyida siz Shvetsiyadagi barcha bolalarga taklif qilinadigan vaksinalarni ko'rishingiz mumkin. Jiddiy kasalliklarning oldini olish maqsadida.

